



UDK:371

Nigora MIRZAYEVA,
Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti v.b
E-mail: nigorabozorovna810@gmail.com

Toshkent amaliy fanlar universiteti dotsenti H.Islomova taqrizi asosida

DIDAKTIK O'YINLAR ORQALI BOLALAR ADABIYOTIGA QIZIQISHNI OSHIRISH YO'LLARI

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimida didaktik o'yinlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bolalar adabiyotiga bo'lgan qiziqishini oshirish masalasi o'rganilgan. Tadqiqot Toshkent shahri maktablarida olib borilgan tajriba darslariga asoslangan bo'lib, unda o'quvchilarning matnni tushunish, personajlarni tahlil qilish va muallif g'oyasini anglash darajasi baholandi. Maqolada samarali o'yin turlarining tahlili keltirilib, ularni adabiy o'quv mashg'ulotlariga integratsiyalash bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Didaktik o'yinlar, bolalar adabiyoti, qiziqish, boshlang'ich ta'lim, metodika, interaktiv usullar.

СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ИНТЕРЕСА К ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ ЧЕРЕЗ ДИДАКТИЧЕСКИЕ ИГРЫ

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос повышения интереса учащихся к детской литературе за счет использования дидактических игр в системе начального образования. Исследование было основано на экспериментальных уроках, проведенных в школах города Ташкента, на которых оценивался уровень понимания учащимися текста, анализа персонажей и понимания авторской идеи. В статье представлен анализ видов продуктивной игры и даны предложения по их интеграции в литературно-воспитательную деятельность.

Ключевые слова: Дидактические игры, детская литература, любопытство, начальное образование, методика, интерактивные методы.

WAYS TO INCREASE INTEREST IN CHILDREN'S LITERATURE THROUGH DIDACTIC GAMES

Annotation

This article explores the issue of increasing students' interest in children's literature through the use of didactic games in the primary education system. The study was based on experimental lessons conducted in schools of the city of Tashkent, in which the level of understanding of the text, character analysis and understanding of the author's idea was assessed by students. The article presents an analysis of effective game types and offers to integrate them into literary training.

Key words: Didactic games, children's literature, interest, primary education, methodology, interactive methods.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi o'quvchilarda fanlarga nisbatan chuqur qiziqish uyg'otishni talab etadi. Ayniqsa, bolalar adabiyotini o'rganish orqali ular badiiy tafakkur, axloqiy qadriyatlar va estetik didni shakllantiradi. Biroq, an'anaviy o'qitish metodlari ko'plab o'quvchilarda zerikish, matnni qabul qilmaslik holatlarini yuzaga keltiradi. Shu bois didaktik o'yinlar orqali adabiyotga qiziqishni oshirish dolzarb masalaga aylangan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Chex pedagogi Y.A. Komenskiy ta'lim nazariyasida o'yinni bolaning tabiiy ehtiyoji, asosiy faoliyati sifatida talqin etgan. U o'yinning bola hayotidagi o'rni va pedagogik ahamiyatini chuqur tahlil qilib, quyidagi fikrni ilgari surgan edi: "O'yin – bu bolaning tabiati bilan uyg'un holda kechadigan, uning qiziqishlari va ichki dunyosi bilan bevosita bog'liq faoliyat shaklidir". Komenskiyga ko'ra, o'yin nafaqat bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish vositasi, balki ta'lim va tarbiyaning muhim pedagogik vositasidir. Aynan o'yin orqali bola o'z aqliy, hissiy va ijtimoiy salohiyatini namoyon qiladi hamda rivojlantiradi.

Olim ta'kidlaganidek, o'yin bolaning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, nutqini takomillashtirish, mustaqil fikrlash va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, tengdoshlari bilan birgalikda bajariladigan o'yinlar bolaning ijtimoiylashuviga, boshqalar bilan muloqot qilish, hamkorlikda harakat qilish va

o'z fikrini bildirish ko'nikmalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, o'yinlar bolalar adabiyotini o'zlashtirishda beqiyos ahamiyatga ega vosita bo'la oladi.

Pedagogik nazariyot va amaliyotda didaktik o'yinlar odatda uch asosiy turga bo'linadi:

Og'zaki o'yinlar – bu o'yinlar asosan so'z va nutq vositasida amalga oshiriladi. Masalan, "top-to'g'ri javobni top", "matnga oid savollar", "hikoyani davom ettir" kabi o'yinlar bolalarning eslab qolish, izchil fikr yuritish va mulohaza qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'yin mashg'ulotlari – dars jarayonida mavzuga mos o'yin shaklida tashkil etilgan faoliyatlar. Bular orqali bola matnni tahlil qilish, obrazlar orasidagi munosabatni aniqlash, muallif fikrini tushunish kabi murakkab jarayonlarga yengil va qiziqarli tarzda kirishadi.

Harakatli yoki mashq o'yinlar – bu turdagi o'yinlar bolalarning jismoniy faolligini rag'batlantiradi. Harakatli topshiriqlar, sahnalashtirish, rolli o'yinlar orqali bolalar matn mazmunini harakat orqali idrok etishadi. Bu esa eslab qolish va anglash jarayonlarini kuchaytiradi.

Didaktik o'yinlar samaradorligi ko'p jihatdan o'yin g'oyasi, mazmuni, vazifalari va qoidalariga bog'liq. Har bir o'yin oldindan belgilangan maqsadga xizmat qilishi va bolada faol ishtirokni yuzaga keltirishi lozim. Didaktik o'yinning eng muhim elementi — qoidasi hisoblanadi. Qoidalar bolani intizomga o'rgatadi, faoliyatda tartib va mas'uliyatni

shakllantiradi, ayni vaqtda o'yin mazmunini amalga oshirishga zamin yaratadi.

Tahlil va natijalar. O'tkazilgan eksperiment tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, didaktik o'yinlar o'quvchilarda bolalar adabiyotiga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga, o'rganilayotgan matnga chuqurroq e'tibor qaratilishiga, shuningdek, ijodiy tafakkurning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Tadqiqot Toshkent shahri va uning atrofidagi ikki umumta'lim maktabida olib borilib, 2–4-sinflarda tahsil olayotgan 85 nafar o'quvchi va 5 nafar adabiyot o'qituvchisi ishtirok etdi.

Eksperiment boshlanishidan oldin o'quvchilarning adabiy matnni anglash, obrazlarni tahlil qilish va matnga nisbatan qiziqishini baholash maqsadida diagnostik so'rovnoma va nazorat topshiriqlari o'tkazildi. Dastlabki bosqichda quyidagi holatlar kuzatildi:

O'quvchilarning 38 foizi matn mazmunini to'liq tushunmaslik, asosiy fikrni ajrata olmaslik muammosiga duch kelgan;

25 foizi qahramonlar xarakterini adashtirib yoki noto'g'ri talqin qilgan;

20 foizi esa o'z fikrini mustaqil shakllantirishda, savollarga ijodiy yondashishda qiynalgan.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va adabiy matnni interaktiv shaklda o'zlashtirishni ta'minlash maqsadida 3 hafta davomida o'tkazilgan eksperimental darslarda quyidagi didaktik o'yinlar qo'llanildi:

“Personaj kim?”, “Voqeani davom ettir”, “To'g'ri-noto'g'ri”, “O'yinli rolli o'qish”.

Darslar yakunida o'quvchilarning bilim, qiziqish va faoliyat ko'rsatkichlari yana bir bor tahlil qilindi. Natijalar quyidagicha bo'ldi:

O'quvchilarning 76 foizi adabiy matnni to'liq anglab, asosiy mazmuni to'g'ri talqin qilishga erishgan;

82 foiz o'quvchi obrazlar xarakterini aniq tasvirlab bera olgan;

68 foiz o'quvchi mustaqil fikr bildirish, ijodiy hikoya yozish va voqeani davom ettirishga qodir bo'lgan.

O'qituvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar va so'rovnoma orqali aniqlanishicha, didaktik o'yinlar darsni jonlantiribgina qolmay, balki o'quvchilarning darsga bo'lgan rag'batini orttirgan, faol ishtirokni ta'minlagan va matnga nisbatan hissiy-emotsional munosabatni kuchaytirgan.

Shuningdek, dars jarayonida kuzatilgan muhim jihatlar quyidagilar bo'ldi:

O'quvchilar orasida jamoaviy muloqot, hamkorlikda fikrlash, bir-birini tinglash ko'nikmalari shakllandi;

Matn asosida ijodiy yondashuvlar ko'paydi, o'quvchilar o'z fikrini erkin ifoda etishga harakat qila boshladi;

Qiyin matnlar ham o'yinlar orqali yengil va qiziqarli shaklda o'zlashtirildi.

Ushbu natijalar shuni anglatadiki, didaktik o'yinlar orqali o'tkazilgan adabiyot darslari o'quvchilar bilim darajasini oshiradi, ularning fikrlash doirasini kengaytiradi va adabiy nutqini faol rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotdan

olingan dalillar asosida keyingi bosqichda metodik takliflar ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida xulosa qilish mumkinki, didaktik o'yinlardan foydalanish bolalar adabiyotiga bo'lgan qiziqishni oshirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Bu usul orqali o'quvchilar adabiy matnni mazmunan chuqur anglash, obrazlar xarakterini tahlil qilish, matn asosida mustaqil fikr va ijodiy yondashuvni shakllantirish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Shuningdek, o'yinli metodlar bolalarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshirib, adabiy jarayonlarda faol ishtirok etishlariga yordam beradi.

Tajriba darslari asosida aniqlanishicha, aynan didaktik o'yinlar orqali o'quvchilarning badiiy tafakkuri, mulohaza yuritish qobiliyati, shuningdek, o'z fikrini adabiy obrazlar orqali ifodalash layoqati ortadi. Bu esa boshlang'ich ta'limda adabiyot fanini o'rgatishda o'yinli yondashuvni keng qo'llash zarurligini taqozo etadi.

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

-Har bir adabiy matnga mos didaktik o'yin shakllarini ishlab chiqish va metodik qo'llanmalar yaratish.

-Boshlang'ich ta'lim darsliklarida mavjud bolalar adabiyoti namunalari mos holda o'yin shakllari ishlab chiqilishi lozim. Masalan, hikoya yoki she'r asosida "savol-javob" o'yini, "krossvord", "matnni davom ettir", "rolga kirib o'qish" kabi metodik vositalar orqali dars mazmuni boyitilishi mumkin. Bu esa o'quvchilarning matnga bo'lgan munosabatini faollashtiradi.

-O'qituvchilarni o'yinli metodlardan foydalanish bo'yicha malaka oshirish kurslariga jalb etish.

-Har bir o'qituvchi o'yin metodlarining maqsadi, qo'llash shartlari va samaradorlik mezonlarini bilishi zarur. Shu sababli, pedagoglar uchun maxsus treninglar, seminarlar, vebinarlar tashkil etilib, ularga innovatsion va o'yinli yondashuvlar bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar berilishi maqsadga muvofiqdir.

-Darsdan tashqari adabiy o'yinlar klubi faoliyatini yo'lga qo'yish.

-Maktablarda adabiyotga oid darsdan tashqari mashg'ulotlar, jumladan "Adabiy o'yinlar klubi" kabi to'garaklar tashkil etilishi lozim. Bu klubda bolalar sahna ko'rinishlari, drammatizatsiyalar, rol o'ynash mashg'ulotlari, matnga doir kvest o'yinlar orqali badiiy nutq va qiziqishni rivojlantiradilar.

-Maktab darsliklari va o'quv qo'llanmalariga o'yin elementlarini integratsiyalash.

Hozirgi mavjud adabiyot darsliklariga o'yin elementlari, vizual topshiriqlar, interaktiv savollar, matn asosida rolli o'yinlar kiritilishi zarur. Bunday integratsiya o'quvchilarni darsga faol jalb etib, ularning tanqidiy va ijodiy fikrlash salohiyatini oshiradi.

Umuman olganda, didaktik o'yinlarning adabiy ta'limdagi o'rni ortib borayotgani zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biridir. Shu bois, ularning metodik asoslarini chuqur o'rganish, pedagogik tajribalar orqali takomillashtirish va ta'lim amaliyotiga keng joriy etish davr talabiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Гербова В. Планирование работы по развитию речи и ознакомление с художественной литературой // Дошкольное воспитание, 1999, № 3, с19-22.
2. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish». -T.: «O'qituvchi», 1990
3. Крупская Н.К. Дошкольное воспитание. 1899. С 165.
4. Qurbonova Maftuna, Methods for improvement of training competitions for
5. Classifications leading on the organization of independent works // Экономика и социум, 2020. №6(73), с 432-437.